

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10479353>

F. Omonova

FarDU magistr

Ijtimoiy himoya bu keng ma'noda — mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui; tor ma'noda — davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rliqi. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to'xtovsiz yaxshilanishini ta'minlash, aholi qatlamlarining ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta'minlashga yordam berishdan iborat. Ijtimoiy himoyaning asosiy yo'nalishlari: erkin ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat ko'rsatishni ta'minlash; ish bilan bandlik, kasb tanlash, o'qish va bilim olish; daromadlarning kafolatlanishi; har bir fuqaroning o'z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo'lishi; iste'molchilar himoyasi, iste'molchilar jamiyatlari; tovarlar va xizmatlar sifati, iste'mol kafolatini ta'minlash; aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish; ijtimoiy ta'minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta'minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish hisoblanadi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari orasida ayollar va bolalar muhim o'rin tutadi. Bola huquqlari to'g'risida so'z borar ekan, Bola huquqlari Deklaratsiyasi hamda bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan. Konvensiya 1959-yilda qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasi qoidalarini rivojlantiradi. U muqaddima, 3 qism, 54 moddadan iborat. Konvensiyaga asosan agar milliy qonunlarda balog'at yoshi birmuncha erta belgilangan bo'lmasa, 18 yoshga to'lmagan har qanday shaxs bola hisoblanadi. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya 1990-yil 2-sentabrda kuchga kirgan. Uni O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 9-dekabrda ratifikatsiya qilgan. Respublikamizda ham bolalar ijtimoiy himoyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, Qonunchilik palatasi tomonidan 2007-yil 23-noyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2007-yil 1-dekabrda ma'qullangan O'zbekiston respublikasi "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonunni misol keltirish mumkin. "Ushbu Qonunning maqsadi bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat" . Bu qonun boshqa ko'plab farmon, qaror va qonun hujjatlari bilan ham mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu hujjatlar bolalarning axloqiy, aqliy va ruhiy qobiliyatlarini erkin rivojlantirishi uchun sog'lig'i va atrof muhitning xavfsizligi, tibbiy yordamga ega bo'lish va ovqatlanish, kiyim-kechak, turarjoy xususidagi minimal normalar bilan ta'minlanishi zarurligini talab etadi. Unga ko'ra, bola o'zining kamol topishida o'zi faol

ishtirok etish, o'z fikrini bayon qilish huquqiga ega, bu esa uning hayotiga oid masalalarni hal etishda hisobga olinishini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ayollar faolligini oshirish, ularning huquqlarini ta'minlash borasida ham qonunlar qabul qilinib, ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, "Oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish;

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash". Bu borada ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilib, turli qonunlar ham qabul qilindi. Jumladan, Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunni misol keltirish mumkin. Ushbu Qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. "Gender — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati". Ushbu hujjatga asosan, erkaklar va ayollarning imkoniyatlari teng bo'lib, ulardan foydalana olish davlat tomonidan kafolatlanib, jamiyatning qaysi sohasida bo'lishidan qat'iy nazar jinsi bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yildi. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" ham qonun qabul qilingan bo'lib, bu qonun orqali xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning har qanday shaklidan himoya qilish ta'minlanadi. Ayollarni nafaqat ijtimoiy, balki ruhiy tomondan ham himoya qilishga ham alohida e'tibor qaratildi. Xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog'ida teng huquqlilik kafolatlandi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini mustahkamlashga, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ijobiy chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda. Xususan, Respublikamizda amaldagi ayol hokimlar soni olti nafarga yetdi:

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumaniga Zulayho Mahkamova, Sirdaryo viloyati Boyovut tumaniga Dilfuza Uralova, Buxoro viloyati Olot tumaniga Nargiza Ne'matova, Andijon viloyati Bo'ston tumaniga Sadbarxon Mamitova, Qashqadaryo viloyati Qarshi tumaniga Maqsuda Mustafoyeva, Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahriga Gavhar Alimova hokim etib tayinlangan. Bu orqali jamiyatning turli sohalariga singari boshqaruv sohasida ham ayollar faolligini ko'rish mumkin.